



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 11-sentabr, chorshanba,

104 (23.981)-son



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

5-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida elektrotexnika sohasida ishlab chiqarish, eksport va investitsiyalarni ko'paytirish masalalari bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Tahliiliy ruhda o'tgan yig'ilishda sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar aniq belgilab berildi. Muxbirimiz ayni yo'nalishda viloyatdagi mavjud holat va galdeg'i rejalar bilan qiziqdi.

Elektrotexnika sanoati: holat va reja

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda shahar va tumanlarda 54 ta elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona mavjud va ularda ikki minga yaqin ishchi faoliyat ko'rslamoqda.

Ushbu korxonalar tomonidan joriy yil 7 oyi davomida 595 milliard so'mlik (o'tgan yilning mos davrida 462 milliard so'm) mahsulot ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 112 foizni tashkil etgan.

O'tgan yilda 62 turdag'i mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, bugungi kunda viloyatimizda 80 turdan ortiq elektrotexnika mahsulotlari tayyorlanadi.

Xususan, sanoatchilarimiz muzlatkich, sovutkich, chang-yutkich, maishiy kir yuvish uskunalarini, har xil turdag'i gaz plitalari, avtobus va yuk avtomobilari uchun istish pechlarini, nasos uskunalarini uchun uzellar, "TMG" rusumli transformatorlari, yuqori kuchlanishli vakumli o'chirish uskunalarini, kabel lotkalari va boshqa kichik maishiy texnikalar ishlab chiqarmoqda.

Bu borada Samarqand shahrida joylashgan sobiq "Sino" zavodi qayta tiklanganini alohida qayd etish mumkin. "Saxar" mas'uliyati cheklangan jamiyatni zavodning barcha qarzlarini to'lab, 49,5 milliard so'mlik zamonaviy muzlatkich va ehtiyoj qismalar ishlab chiqarmoqda.

Kattaqo'rg'on tumanida tashkil qilingan "Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi" mas'uliyati cheklangan jamiyatni ham sohada amalga oshirilgan yirik loyihalardan biri. Ushbu korxona yiliga 42,4 milliard so'mlik kuchlanish va tok o'chov transformatorlari ishlab chiqarilmoqda. Muhim, bu yerda 85 ta ish o'rni yaratilgan.

Elektrotexnika sanoatida

ishlab chiqarilgan mahsulot hajming jami sanoatdagi ulushi 2,7 foizni, yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi esa 1,3 foizni tashkil etmoqda.

Albatta, bu yakuniy raqamlar emas. Shu bois joriy yilning o'tgan davrida umumi y qiyimi 60,7 milliard so'mlik 3 ta loyiha ishga tushirilib, 175 ta ish o'rni yaratildi. Jumladan, Nurobod tumanida "TECOM ELEVATING SYSTEMS" mas'uliyati cheklangan jamiyatni 34,8 milliard so'mlik loyiha asosida lift, escalator va metallkarkas ishlab chiqarishni yo'nga qo'ydi.

Umuman, joriy yilda sohada qiyimi 697,5 milliard so'mlik 19 ta loyiha ishga tushiriladi va 700 ga yaqin yangi ish o'rni yaratiladi. Misol uchun, Urgut tumanida "BENDESIDO" mas'uliyati cheklangan jamiyatining qiyimi 48 milliard so'mlik zamonaviy maishiy texnika vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi yo'nga qo'yilgach, 30 ta ish o'rni yaratiladi.

Ma'lum qilinishicha, viloyatda elektrotexnika mahsulotlari "IDEAL", "ELITE", "KLEO", "FERRE" kabi savdo belgilari bilan ishlab chiqariladi. Ularning soni va salmog'ini oshirish uchun rivojlantagan davlatlar bilan hamkorlik aloqlari yo'lgina qo'yilmoqda.

Birgina misol, Xitoy Xalq Respublikasiga xizmat safarlarini davomida qiyimi 474 million dollarlik 12 ta loyihami amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishilgan. Ushbu loyihalar 2024-2025-yillarda amalga oshiriladi.

Demak, hali ko'plab yangi turdag'i mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nga qo'yiladi. Va asosiyasi, yuzlab hamyurtlarimiz muqim ish bilan ta'minlanadi.

Y.MARQAYEV tayyorladi.

DUNYO TO'QIMACHILIK SANOATI VAKILLARI ANJUMANI



Samarqanda Xalqaro to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiya-si (ITMF) va Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasi (IAF)ning "Innovatsiyalar, hamkorlik va tartibga solish – to'qimachilik sanoati va kiyim-kechak ishlab chiqarishning harakat-lantiruvchi kuchlari" mavzusidagi yillik konferensiyasi o'tkazildi.

Mazkur nufuzli tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Savdo-sanoat palasati va "O'zto'qimachilik sanoat" uyuşmasi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan anjumanda ITMF va IAFga a'zo davlatlar, yirik to'qimachilik kompaniyalari, dunyoga mashhur brendlar, moliya institalarining 500 ta ortiq vakillari ishtirok etdi.

ITMF dunyoning 123 ta eng yirik to'qimachilik uyuşmalarini birlashtiradigan va ular tarkibidagi

to'qimachilik korxonalarini va brendlarning xalqaro aloqalarini kengaytirishga yordam beradigan tashkilotdir. IAF esa 60 ta mamlakat uyushmalari va ular tarkibidagi 100 mingdan ortiq brendlari va chakana savdo kompaniyalarini birlashtiradi. Mamlakatimiz 2014-yilda Xalqaro to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiyasiga, 2020-yilda esa Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasiga a'zo bo'lgan.

Anjumanning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman qatnashchilariga tabrigini O'zbekiston Bosh vaziri o'rinnbosari J. Xo'jayev o'qib eshitirdi.

Yurtimizda bugungi kunda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 barobar ko'paydi, eksport 4 karra ortdi. Eng muhim, ilgari sohada eksportning 70 foizi xomashyo hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunda chetga sotilayotgan tovarlarning 60 foizini tayyor mahsulotlar tashkil etmoqda.

Anjumanda viloyat hokimi E.Turdimov, O'zbekis-

ton Savdo-sanoat palasati raisi D.Vahobov so'zga chiqib, mamlakatimizda, jumladan, Samarqand viloyatida to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, paxta tolosi ishlab chiqarish va uni qayta ishlash borasida gilish haqidagi ma'lumot berdi.

Ochilish marosimida so'zga chiqqan Xalqaro to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiyasi prezidenti Key Vi Shrinavasan va Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasi prezidenti Chern Altan Markaziy Osiyo davlatlarida ilk bor O'zbekistonda o'tkazilayotgan mazkur anjumanning yuqori saviyada tashkiloti, taliq xomashyo va sun'iy materiallardan tayyorlanayotgan mahsulotlar savdosiga, narx tendensiyalaringi o'zgarib borayotganiga e'tibor qaratildi.

Anjuman qatnashchilar O'zbekistonda to'qimachilik sanoating rivojlanishi va istiqboliga oid ko'rgazma, yurtimizdagi yetakchi ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari namoyishi bilan tanishdi.

Faziliddin RO'ZIBOYEV.

Yangi o'quv yili yangi binoda boshlandi

Samarqand davlat chet tillar institutida 2000 o'rini yana bir yangi o'quv binosi foydalananiga topshirildi.



Institutning 74 milliard 287 million so'm mablag'i hisobidan buning etilgan 7 qavatlari binoda 85 ta o'quv xonasi, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan 300 o'rini mustaqil ta'lim xonasi, 320 o'rini faollar zali, axborot-resurs markazi, 2 ta sinxron tarjima amaliyoti xonasi, muzey, konferensiyalari zali hamda sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlariga no'ljalangan 5 ta xona mavjud. Bu yerda uchta fakultet talabalari tahsil oladi.

Yangi binoning ochilish marosimida viloyat hokimi o'rinnbosari H.To'xtayev ishtirok etib, institut professor-o'qituvchilari va talabalarni o'quv yili boshlanishi bilan tabrikadi.

Bugungi kunda Samarqand davlat chet

tillar institutida 11 ming 594 nafr talaba tahsil oladi. 2024/2025-o'quv yiliда 1600 nafrandan ziyyod yigit-qizga mazkur ta'lim dargohi talabaligi nasib etdi.

Yangi bino foydalananiga topshirilishi bilan institut o'quv binolarini 6 taga, o'rinalar soni esa 6240 taga yetdi. Shuningdek, hozirda muassasada 2020 o'rini 5 ta talabalar turarjoyi mavjud. Ayni paytda yana 400 o'rini talabalar turarjoyi barpo etilmoqda.

Bir jumlada



Samarqand shahrida "Zarmed" universitetining 21 ta bakalavriat, 5 ta magistratura va 17 ta ordinatura ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lgan Samarqand kampusi ish boshladi.

Kattaqo'rg'onlik bokschi Sevara Mamatova -60 kilogram vazn toifasida Osiyo championatining otin medalini qo'lg'a kiritdi.

Istixxon tumanidagi ijtimoiy himoya muhitol, boquvhisini yo'qotgan xotin-qizlarning 421 nafriga bir martalik moddiy yordam pullari (BHMning to'rt baravarigacha 1 million 200 ming) so'm miqdorida tarqatildi.

Kattaqo'rg'on tumanining Bog'ot mahallasi-da uchta ko'pgavatlari, 90 xonadonli turarjoy majmuasi barpo etildi.

Nurobod tumani hokimligi hamda Hindiston-Larsen & Toubro: L&T kompaniyasi vakillari o'tasidagi urashruvda tumanning Sazag'on va Olg'a mahallalari huddidiy quvvati 500 Mvt quyosh fotoelektr stansiyasi, quvvati 334 Mvt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimi hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiya qurish loyihalari bo'yicha o'zaro manfaatli kelishuvlarga erishildi.

Paryiq tumanida Majburiy iyo bo'limi tonidan jarima maydoniga olingan 5 ta "BELARUS-1523" traktori auksion savdolariga chiqarildi.

Past Darg'om tumani Po'latchi mahallasi-dagi "Ipak yo'li" ko'chasida hashar yo'li bilan 1500 metrlik piyodalar yo'lakchasi barpo etishga kirishildi.

Paxtachida o'tkazilgan mehnat yarmarkasida 21 nafr fuqaro o'zlariga mos yo'nalishlar bo'yicha ishga joylashtirildi.

Samarqand tumanidagi 25-umumiyo'rta ta'lim maktabining 5 ta sinfxona hamda kutubxonadan iborat qo'shimcha binosi foydalananiga topshirildi.

Tuzalmas dard tuzalyapti

"Ishga endi kelgan yillarimni xotirlayman, ahvol juda ayanchli edi. Koridor dan, palatalardan taralayotgan qon hidiga chidab bo'lmasisdi. Har kuni o'lim holati, shifokor mutaxassis kam. Bollarini ham bu sharoitda ishlashga ko'nikolmaydi..."

Yaqinda mamlakatimiz rahbari farmoniga ko'ra, II darajali "Salomatlik" ordeniga sazovor bo'lgan Zokir Sa'diyev bilan subhatimiz shifokorning bu dargohiga ishga kelgan yillari xotirasidan boshlandi.

- Bu yil ushbu dargohda ishlaganimga roppa-roza 30 yil to'ldi, - deydi viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi gematologiya bo'limi mudiri, II darajali "Salomatlik" ordeni sohibi Zokir Sa'diyev.

- Gematologiya bo'limida ahvol juda ayanchli edi o'sha paytalar. Oqqon bilan og'igan bemorlarga quvaylatotgan qon plazmasining sifati yaxshimas, har kuni o'lim holati kuzatilardi. Shifokor sanoqli, bemor ko'p, davolashning samaradorlik ko'rsatkichi juda past. Bunday sharoitda ishlash kishiga ma'nan og'riq beradi, ishingdan ko'ngling to'imaydi, lekin o'zgarish bo'yicha ishchiga ishonching, umiding so'mmaydi. O'sha yillari ustozimiz Ilyas Bogdanov hamkorligida qator izlanishlar olib bordidi. U kishining tashabbusi bilan ilk bor yangi davolash usuli – BFM joriy etildi va yaxshi samara bera boshladi. Yillar o'tgani sayin



davolash yanada takomillashdi, sog'ayayotgan bolajonlar soni ko'paydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda ularni dori-darmon bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, to'liq ta'min amalga oshirilayapti. Bugun 70 foiz bola uzoq muddati remissiyaga chiqyapti. Ya'nin, ikki yil to'liq, rejali asosda muolaja olgach, uch yil yana shifokor nazoratida bo'ladi va shundan keyin ular

to'la nazoratdan chiqariladi. Bu degani – ular to'la sog'ayib ketishi va qayta kasallanmasligiga ishoch bor. Afsuski, ba'zida bemor bolalarning ota-onalari tashxisini eshitgach, qo'rqib ketishadi. «Yo'q, mening bolam oqqaq kasaliga chalimagan», deya tabiblariga borishadi. Afsuski, bolaning ahvolini o'rlashtirib kelganlar ham ko'p.

Yaqin yillarda ushbu markazda biz orzu qilgan yana bir muhim muolaja – ilki ko'chirish operatsiyasi amalga oshirilishi rejalashdirilmoqda. Yaxshi bilasiz, bemor bolalar bu yerda uzoq muddat davolangan sababli darslarni o'zlashtirmay qolardi. Yaqinda shu bo'limning o'zida "Mehrli makktab" ochildi. Eng zamonaviy sharoitga ega bo'lgan makktab bola-jonlarning sevimli maskaniga aylandi.

- Tibbiyotdagi islohotlar, o'zgarishlar yilda emas, har oyda ko'zga tashlanayapti, - deydi Z.Sa'diyev.

- Mamlakatimiz rahbari bu masalalarga eng dolzarb vazifa sifatida e'tibor qaratayotgani quyiz tizimlarda yaqqol sezilyapti. Mustaqillik bayramining 33 yillik tabrigida ham bu soha alohida tilga olindi. Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy e'tiborni beshta ustuvor yo'nalishga qaratmoqdamiz. Bular avvalo, sifatli ta'lim tizimini yo'ga qo'yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatliti sud tizimini yaratish, sog'liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlashdan iborat, deb ta'kidladi Prezidentimiz.

Shifokor uchun bermorning tuzalishidan ortiqroq maqsad yo'q. Shu masalada bugun davlatimiz tonidan keng ko'lamdagisi ishlarning olib borilayotgani salomatlik posbonlariga e'tibor hamidir.

Gulruk MO'MINOVA.

**KUN
HIKMATI**

Ota-onadan yaxshi fazilatlarni o'zlashtirmagan bolaga tarbiya berish qiyin kechadi

OLIY TA'LIM MUASSASALARI YANGI O'QUV YILINI QANDAY BOSHLADI?

2024-2025-o'quv yilida Samarqand davlat universitetiga 1035 nafar abituriyent davlat granti, 2274 nafari to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi. Shuningdek, universitetda grafika: xattotlik va miniatyura, cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (zarbli cholg'ular), xoreografiya: zamonaliviy raqs, falsafa, filologiya va tillarni o'qitish: turk tili, siyosatshunoslik, yurisprudensiya, davlat va jamiyat boshqaruvi, meteorologiya va iqlimshunoslik, axborot xavfsizligi, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtrish, geodeziya va geo-informatika, fundamental tibbiyot kabi yangi yo'naliishlar ochildi.

Bundan tashqari, universiteda xorijiy oliy ta'limga muassasalar bilan hamkorlikda xalqaro qo'shma ta'limga dasturlari bo'yicha bakalavriat ta'limga shaklida psixologiya, biologiya, kimyo, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar kabi yangi yo'naliishlar tashkil etildi.

Qo'shma ta'limga dasturlarining magistratura ta'limga shaklida muzeishunoslik, tariix-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash, xalqaro munosabatlar va zamonaliviy siyosiy jarayonlar, hujjatchilik, hujjatshunoslik va arxivshunoslik kabi o'ndan ortiq yo'naliishlar tashkil etildi.



TIBBIYOT UNIVERSITETIDA

YANGI O'NALISHLAR OCHILDI

Samarqand davlat tibbiyot universitetining bakalavriat ta'limga 530 nafar talaba davlat granti, 591 nafari to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi. Magistratura ta'limga shakliga 78 nafrat tinglovchi talaba davlat granti, 61 nafari to'lov-kontrakt asosida, klinik ordinatura ga 37 nafrat tinglovchi davlat granti, 372 nafari to'lov-kontrakt, 63 nafrat maqsadli shartnomaga asosida o'qishga tavsija etildi.

Universiteda 2024-2025-o'quv yilidan biotibbiyot muhandisligi yo'naliishi ochildi. Xalq tabobati yo'naliishing nomi fundamental tibbiyot (tibbiy biologik ish va xalq tabobati) nomiga o'zgartirildi.

Bundan tashqari, universiteda yangi o'quv yilidan AQShning Webster universiteti, Polshanning Pomorsk universiteti, Rossiya Federatsiyasining I.Ulyanov nomidagi Chuvashiya davlat universiteti, Saratov davlat tibbiyot universiteti, Oltov davlat tibbiyot universiteti, Priviljsk tadqiqot tibbiyot universiteti, Shinjon tibbiyot universiteti (Xitoy Respublikasi) va Tojikiston davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda bakalavriat qo'shma ta'limga dasturi bo'yicha klinik psixologiya, kosmetologiya, farmatsiya, fundamental tibbiyot, hamsharlik ishi, davolash ishi, stomatologiya, pediatriya ishi kabi yangi yo'naliishlar ochildi. Hamkorlik shartnomasiga ko'ra, talabalar 3+1, 2+1, 3+2 ta'limga dasturlari bo'yicha o'qish va ikki diplomli bo'lish imkoniga ega bo'ldi.

Universitet akademik va moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgani uchun o'quv yili kontrakt-to'lov summasini stipendiyasiz 12 million 75 ming so'm etib belgiladi. Ushbu kontrakt summasi faqat 1-kurslarga tatbiq etiladi.

GEOMATIKA MUHANDISLIGI KAFEDRASINING FILIALI TASHKIL ETILDI

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti hamda respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasi o'tasida hamkorlik aloqalarini o'rnataldi. Unga ko'ra, markazning viloyat bo'linmasida geometriya muhandisligi kafedrasining filiali tashkil qilindi.

Yangi o'quv yilidan boshlab geomatika mu-

handisligi kafedrasi filialida kadastr, geometrika muhandisligi, geodeziya, kartografiya va kadastr hamda geodeziya va geo-informatika ta'limga yangi yo'naliishlar talabalariiga fan-ta'limga va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirishda dual ta'limga yo'lgan qo'shiladi.

IKKITA OLIY TA'LIM MUASSASASIDA OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI YO'NALISHI MUTAXASSISI TAYYORLANADI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetiga 2024-2025-o'quv yili uchun bakalavriatning kunduzgi ta'limga yangi yo'naliishlariga 401 nafar abituriyent davlat granti, 768 nafari to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi.

Universitetning sirtqi ta'limga shaklidagi yangi yo'naliishlariga 13 nafrat abituriyent davlat granti, 652 nafari to'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsija etildi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida kunduzgi ta'limga 379 nafrat abituriyent talabalikka tavsija etildi. Shundan 98 nafari davlat granti, 281 nafari to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi.

Sirtqi ta'limga yangi yo'naliishlarida esa 3 nafrat abituriyent davlat granti, 102 nafari to'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsija etildi.

Ikkala oliy ta'limga muassasasida ham oziq-ovqat texnologiyasi yangi yo'naliishi ochildi.

VILOYATDA XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI SONI BESHTAGA YETDI

Bugun viloyatda davlat oliy ta'limga muassasalar bilan birga xususiy oliy ta'limga muassasalarini ham faoliyat yuritmoqda.

Viloyat oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar boshqarmasining ma'lum qilishicha, viloyatda nodavlat ta'limga xizmatlari ko'rsatish huquqini beruvchi litsenziyaga ega nodavlat oliy ta'limga muassasalarining soni beshtaga yetgan. Ular Samarqand xalqaro texnologiya universiteti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, ISFT Samarqand filiali, Zarmed universiteti Samarqand filiali, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand filialidir.

Xurshida ERNAZAROVA.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot



MEHNAT QILISH uchun ham aql kerak

birdagi barcha hovlida malina yetishtiriladi, - deydi mahalla raisi Nuriddin Sobirov. - Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida eksport qiluvchi tadbirkorlar shu qishloq-dan malina sotib olishadi. Har bir tomorqa egasi malina yetishtirib, o'rtacha 50 million so'm atrofida daromad topyapti.

PENSIONER TOMORQACHI

Mahalla nuroniylaridan biri Sa'dulla Yo'ldoshev pensiya chiqqandan beri tomorqachilik bilan shug'ullanadi. Uning 1 so'tikli issiqxonasi bor. 4 so'tik yerda malinazor tashkil qilgan.

- Dastlab qishlog'imizga malina ko'chatini mahalladoshimiz Xonbiyi aya kelitigan va ko'paytirgan, - deydi u. - Biz u kishindan 10-15 ta ko'chat olib, ekib boshlagamiz. Bugungi kunda 4 so'tik yerda malina parvarishlayapman. Keksalik davrida ermak bo'larkan. Ham mo'maygina daromad keltiriyapti. Malinaning o'zidan bir mavsumda 15 million so'mdan ziyod daromad topamiz. Ko'chatini sotsak, u ham pul. Tomorqada bir qarich yerni bo'sh goldirmsalikka harakat qilaman. Qator oralarida sabzavot mahsulotlarini yetishtiraman. O'zimnikidan tashqari yana 3 farzandimning ro'zg'origa bir qishlik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib beraman.

NOGIRONLIGI BO'LGAN YIGITGA ISH KERAK, AMMO...

Shu mahallada yashovchi Husan Abdurahmonov nogironligi bo'lsa ham turmush o'rtoq'i bilan birga bir so'tik yerda malina yetishtiradi. Uning ko'zi ojiz, ammo iste'dodli yigit.

- Dastlab ko'zi ojiz bolalar maktab-internatinu tamomlab, Toyloq pedagogika kollejida musiqa san'ati yo'naliishi da tashkil olganman, - deydi u. - Keyin shu yo'naliishi bo'yicha Samarqand davlat universitetida o'qidim. Ayni paytda Toshkent davlat pedagogika universiteti magistrantiman.

Mahalla faoliarining aytilishicha, Husan juda kamtarin yigit. Ehtiyoji bo'lsa ham birovdan yordam so'rashni or biladi. Shu kunkarda unga ish kerak. Uyidan olisroq hududlarda ish bor, ammo uning uchun uzoqqa qatnab ishlash osomas. Qishlog'idagi maktabda esa hozircha bo'sh ish o'rni yo'q ekan.

- Farzandimga shu yaqin atrofdan ish topilsa, yaxshi bo'lardi, - deydi Husanning onasi. - Mas'ular shu masalani hal etsa, juda minnatdor bo'lardik.

To'lgin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

**BU
FAKT!**

Statistika boshqarmasiga ko'ra, viloyatimizda joriy yilning 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 821 ta bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,8 foizni tashkil etgan.

Xususiy korxonalar sonining eng ko'p ulushi Samarqand shahrida 720 ta, Urgut tumanida 526, Ishtixonada 488, Narpayda 434 va Past Darg'omda 425 tani tashkil etmoqda.

Sayyoh o'zini xavfsiz his qilishi uchun...

Joriy yilning 7 oyida Samarqandga 3 million 904 ming nafarga yaqin sayyoh kelgan bo'lib, ularning 1 million 254 ming 700 nafari xorijlik hisoblanadi. Mehmonlarga 16529 o'rini 170 ta mehmonxonada, 380 ta oilaviy mehmon uyi, 100 ta xostel va 304 ta turkompaniya xizmat ko'rsatmoqda.

Maqola boshida bu raqamlarni bejiz keltiradi. Milliy iqtisodiyotimizda ulushi tobora ortib borayotgan turizm sohasi viloyatimizning ham drayveri hisoblanadi. Shu bois uni rivojlanish, xususisan, xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiysini hayotga ttabiq etish uchun bugun katta kuch va vositalar yo'naitirilgan. Ha, xalqaro maydonda ro'y berayotgan ziddiyatlar, ijtimoiy xavfli jinoyatlar sonining ortishi fonida xavfsizlik turizm istiqbolining eng muhim omili sifatida belgilanmoqda.

— Boshqarmaning xavfsizlik profilaktikasi guruhni tomonidan o'tgan 7 oyda 1096 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlandi, - deydi viloyat ichki ishlari boshqarmasi xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi tashkiliy muvoqilaqshirish bo'linmasi boshlig'i Istam Sodiqov. - Shu davrda sayyohlardan 21223 ta o'zaki murojaat qabul qilingan bo'lib, 78 tasiga tibbiy yordam berish, 20999 holatda adashganlarga to'g'ri yo'k ko'rsatish va 146 ta holatda boshqa masalalar bo'yicha amaliy yordamlar hech nimani anglatmas, biroq xavfsiz turizm nafaqat viloyatimizga sayyohlar oqimini oshiradi, balki yurtimizning xalqaro maydonagi nufuzini ko'tarishga ham xizmat qiladi.

Darhaqiqat, biringa joriy yilning o'tgan vaqtida viloyatimiz 100 dan ziyod xalqaro tadbirlar mezboni bo'ldi. Shu davrda boshqarma tomonidan viloyatga 24 ta xorijiy davlatdan kelgan 83 ta hamda BMT, Yevropa Ittifoqi, MDH, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning 18 ta delegatsiyasini kutib olish, xavfsizligini ta'minlash va kuzatish ishlari tashkil etilgan. Eng asosiyi, tashriflar davomida birorta ko'ngilsiz holatga yo'q yilmagan.

— Xizmat joyimiz muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalardaligini uchunmi, ishga chiqqa-



nimda doim katta mas'uliyatni his qilamiz, - deydi boshqarmaning jamoat tartibini saqlash guruhi inspektorii Aziz Ergashov. - Tizimda ishlayotganimga 3 yil bo'ldi. Kasbinni juda yaxshi ko'raman. Bir nechta xorijiy tilni bilganligimiz sababli xorijiliklar bilan oson muloqotga kirisha olamiz. Ammo turist faqat xorijid kelmaydi. Ichki sayyohlik ham rivojlanib bormoqda. Biz barcha sayyohlarining xavfsizligiga mas'ulmiz. E'tiborlis, o'tgan davrda viloyatda mahalliy sayyohlar tomonidan va ularga nisbatan birorta jinoyat sodir etilmadi.

Boshqarma faoliyatining asosiy yo'naliishi jinoyatni fosh etish emas, uning oldini olishdir. Shu bois profilaktik tadbirlarga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, hisobot davrida boshqarma tomonidan turli yo'naliishlarda 5099 marotaba profilaktik tadbir o'tkazilgan. Namoyish obyektlari va ularga tutash hududlarda maqsadsiz yurgan 5908 nafar fuqaroning shaxsi aniqlashirilib, 3037 nafari bilan profilaktik suhbati o'tkazilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatning tog'li hududlari, tumanlardagi sayyohlar gavum bo'ladigan joylarda ham tegishli xizmat bo'limlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bu esa xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiysi qamrovini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Asqar BAROTOV.

Talon-tarajlikning oldi olindi



Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi va "A.A.S" mas'uliyati cheklangan jamiyat o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, byuroning hududiy boshqarmasi yoki uning tuman va shahar bo'limlari tomonidan sud va boshqa organlarning qarorlariga asosan davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulk realizatsiya qilish uchun "A.A.S" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga topshiriladi. Korxonalar mol-mulkini realizatsiya qilishdagi tushgan pul mablag'larini tegishli depozit yoki maxsus hisobraqamga o'tkazib berishi lozim.

O'tgan vaqtida byuroning Samarqand shahar bo'limi 57 turdag'i jami 229 million 731 ming so'mlik zargarlik buyumlarini "A.A.S" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga topshirgan. Ammo joriy yilning 18-yarvarda byuronning viloyat boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan o'rganishda korxona direktori A.A. tomonidan sotuvga chiqarilgan mol-mulk lar qoldig'i ko'rsatilmagan. Shunday holat byuroning Jomboy tuman bo'limi tomonidan topshirilgan zargarlik

buyumlari bilan ham sodir bo'lgan. O'rganish davomida byuroning Samarqand shahar va Jomboy tuman bo'limlari tomonidan topshirilgan jami 411 million 282 ming 704 so'mlik zargarlik buyumlarining sotuvidan tushgan mablag' byuro idorasi hisobraqamiga o'tkazilganligi aniqlandi hamda korxona direktori A.A.ga nisbatan jinoyat ishi o'zg'atildi.

Jinoyat ishi bo'yicha o'tkazilgan tergov harakatlari davomida A.A. kamomadni

to'liq qopladи. Shu bilan birga, jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudiunga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari, ya'ni 17 million so'm miqdorida jarima belgiladi.

B.RAHIMOV,
MIB shaxsiy xavfsizlik katta inspektori.
A.MIRSHAYEV,
MIB viloyat boshqarmasi shaxsiy xavfsizlik shu'basi inspektori.

Xizmat joyimiz muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalardaligini uchunmi, ishga chiqqa-

Yurtimiz fuqarolarining manfaatlari har yerdagi himoya qilinadi. Ular xoh mehnat qilish, hoh ta'limga olish uchun bo'sin, xorriga chiqsa, ortalarida O'zbekiston degan davlat turganini, o'zlarining shu davlat himoyasida ekanini his etadilar. Buni bugun Amerika Qo'shma Shtatlarida yashayotgan urgutlik yosh huquqshunos Muhammad Haqberdiyev ham e'tirof etmoqda.

Muhammad 2004-2016-yillarda G'o's qishlog'idagi 30-maktabda, tuman markazidagi 136-ixtisoslashtirgan maktabda, so'ngra G'o's maishiy xizmat va servis kasb-hunar kollejida tahlis olgan. 2018-2022-yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining xalqaro huquq fakultetida xalqaro huquqiy munosabatlar yo'nalishida o'qigan. 2019-yildan Oliy Majlis huzuridagi qonunchilik muammolarini va parlament tadqiqotlari instituti qoshidagi "Yosh qonunshunoslar" klubida faoliyat yuritib, huquq ijodkorligi sohasida tajriba ortirdi.

Mehnat faoliyatini 2020-yilda O'zbekiston yoshlari umumiyahon assotsiatsiyasining huquqiy targ'ibot va maslahatlar bo'limida bosh mutaxassis - yurist-konsult vazifasida boshladi. Xorijda mehnat qilayotgan o'zbekistonli yoshlar bilan ishlab bo'limi bosh mutaxassis va keyinchalik shu bo'limning boshlig'i bo'ldi. Hozirda assotsiatsiyaning AQShdagagi koordinatori sifatida volontyoriy faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

Qahramonimiz 2020-yilda O'zbekiston yoshlari umumiyahon assotsiatsiyasining dunyo mamlakatlaridagi immigratsiya bilan bog'liq jarayonlar va unda huquqni qo'llash sohasidagi masalalar tadqiqiga oid "Musofir" mobil ilovasini ishlab chiqdi. Mazkur assotsiatsiyaning "Xavfsiz migratsiya" hamda "Sayyor qabullar" loyihalarning ishlab chiqilishi va amaliyotga tabtiq etilishida ham faol ishtirot etdi. Ushbu loyihalor doirasida xorijdagi yosh o'zbekistonliklarning huquqiy holati hamda yuzaga kelayotgan muammolar o'rganilib, immigratsiya va yoshlar sohasidagi tashkilotlar bilan diplomatik hamda ishchi aloqalar o'rnatilishi uchun jon kuydirdi.

- AQShdagagi tadqiqotlarim O'zbekistonda 2020-yillarda boshlangan izlanishlarning davom bo'lib, ular asosan migratsiyada inson huquqlarini himoya qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni barartaf etish tizimlarini yaratishga qaratilgan, - deydi Muhammad Haqberdiyev. - Bu borada ayniqsa "Sayyor qabullar" loyihasi asosida olib borilgan izlanishlarni alohida ahamiyatga ega. 2022-yilda Janubiy Koreyada bo'lib, Seul, Kvanju, Chonan va Tejon shaharlaridagi muhojir vatandoshlarimiz muammolarini o'rganganim. 2021-yilda Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg va Qozon shaharlarida muhojirlarimiz duch kelayotgan muammolarini o'rgandik va daxlid tashkilotlar bilan aloqalarni yo'nga qo'yidik.

AQShda migratsiya muammolarini tadqiq etmoqda



- Ilmiy tadqiqotlaringiz mohiyati, o'ziga xos jihatlar nima? Ularning natijalari haqida nimalar deya olasiz?

- Tadqiqotlarimga talabalik yillardima Oliy Majlis huzuridagi qonunchilik muammolarini va parlament tadqiqotlari instituti qoshidagi "Yosh qonunshunoslar" klubiga a'zoligim turki bo'lgan. Bu davrda biz ko'p marotaba deputatlar va xorijiy tashkilotlar vakillari bilan uchrashganimiz. Shu uchrashuvlar doirasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida tashkil etilgan muhokama ustozlarimiz va soha mutaxassislarini tomonidan migratsiya va immigratsiya huquqi sohasida borayotgan jarayonlarni, ayniqsa, O'zbekiston nuqtai nazaridan tadqiq qilish dolzarblashayotgani ta'kidlangan edi. Shundan mening illi izlanishlarni boshlandi.

Yoshlar, asosan, mehnat va ta'limga migratsiyasiga chiqib ketgan. Ularning katta qismi Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Janubiy Koreyada. "Sayyor qabullar" va "Xavfsiz migratsiya" loyihalarinig birgalikdagi natijasi o'laroq, mammakatimizdagi 10 mingga yaqin yoshlar yetakchilarini bish ishlab chiqqan xorijidi yoshlar bilan ishlab tizimiga o'tkazish orqali xorijidi 268 ming nafr yoshlar bilan aloqa o'rnatish va ko'pchiliginining muammolarini yechishga muvaffaq bo'lganimiz.

- Bugun o'zbekistonlik yoshlar orasida migratsiya bilan bog'liq qanday muammolar bor? Ularga qanday yechimlar izlanyapti? Sizningcha, ta'limga

olish uchun ketayotgan talabalarning bilim darajasi qoniqarlimi?

- Migratsiyaga ketayotgan fuqarolarimiz duch kehayotgan asosiy muammolar ularning xorijiy mamlakat tilini bilmasliklari, ushbu mamlakat qonunchiligi va jamiyat qoidalaridan xabardor emasliklari, shuningdek, o'z huquqlarini bilmasliklari bilan bog'liq.

O'rorganishlarim asosida olingan natijalarga ko'ra, yoshlarimiz migratsiyaga puxta tayyorgarlik ko'rmaydilar, hatte oddiy qoidalarni ham bilsmasdan xorijiga chiqadilar va buning obiqitida muammolar yuzaga keladi. Shaxsani o'zim ham chegara o'tkazish punktlaridagi masalalar va xorijiy mamlakatda qonuniy bo'lishning birinchi davrda qilinishi kerak bo'igan ishlarning amalga oshirilmagani yuzasidan yuborilgan murojaatlar bilan juda ko'p ishlaganman.

Yuqorida muammolarning doimiy o'rganilishi tashkil etilib, davlat tashkilotlari takliflar kiritilayapti va ba'zi masalalar yuzasidan yangi loyihalor ishlab chiqilayapti.

Tajribamiz shuni ko'rsatadi, xorijga ta'limga olish uchun ketuvchilar asosan ikki turga bo'linib qolgan.

Birinchisi - nufuzli oly ta'limga muassasalariga intiluvchilar. Ular yuqori salohiyatga, til bilimlari va har tomonlama keng dunyoqarashga ega hamda muammo-larga duch kelish ehtimoli juda past.

Ikkinchisi - o'rta yoki past mavqeli oly o'quv yurtlariga ketuvchilar. Aksariyatining til bilish darajasi past. Oliyogohga o'qishga kirishda odatda konsalting firmalari xizmatidan foydalananishadi. Ular ketma-ket yuzaga keluvchi muammolar girdobida qolishi mumkin.

- "Musofir" loyihasi haqida batafsilroq ma'lumot bersangiz.

- "Musofir" mobil ilovasi 2020-yilda ishga tushirilgan dasturiy ta'minot bo'lib, unda asosan, xorijagi mehnat va ta'limga migratsiyasida bo'lgan fuqarolarimizga xorijga chiqish jarayonlari va qoidalarni to'plami sifatida davlatlar kesimida ma'lumotlar bazasi shakkllantirilgan. Loyer 2022-yilda yangilangan holda ishga tushirildi va unga o'qir vaziyatda qolgan vatandoshlarimizga xayriya mablag'larini to'plash orqali yordam berish funksiyasi ham qo'shildi.

Bu yil 27 yoshni qarshi olayotgan Muhammad Haqberdiyev yaqinda Pensilvaniya shtatidagi Steyt Kollej shahrida joylashgan Pensilvaniya davlat universitetining "Penn State Law" huquq maktabi magistratura bosqichini tugatdi. U hozirda zamona davydona inson huquqlari va immigratsiya qonunchiligi masalalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini davom ettirmoqda.

Nusrat BOBOYEV.

Samarqandda Xalqaro notariuslar ittifoqi Osiyo ishlari bo'yicha komissiying 14-yalpi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda ittifoqning Osiyo ishlari bo'yicha komissiyyasi a'zolari hamda o'ttizga yaqin davlat notariat tizimlaridan 300 nafar vakil ishtirot etdi.

Notariat sohasini raqamlashtirish – bugungi kun talabi



Tadbir avvalida O'zbekiston Notarial palatasi raisi, Xalqaro notariuslar ittifoqining Osiyo ishlari bo'yicha komissiyyasi prezidenti Dilshod Ashurov komissiyaning bir yillik faoliyatni hamda O'zbekistonkeyingi yillarda notariat sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

2021-yil 3-dekabrdagi Xalqaro notariuslar ittifoqiga a'zo bo'lgan O'zbekiston Notarial palatasi qisqa vaqt ichida ittifoq hamda uning Osiyo ishlari bo'yicha komissiyyasida o'z o'rning ega bo'ldi. Ayni paytda O'zbekiston notariati nafaqat xorijiy tajriba asosida takomillashtirmoqda, balki ko'plab davlatlar uchun andoza olish mumkin bo'lgan namunalni tizim sifatida shakllandi. Shu bois Xalqaro notariuslar ittifoqining 2023-yil 21-iyuldagagi qaroriga ko'ra, O'zbekiston Notarial palatasi raisi Dilshod Ashurov bir yil muddatga ittifoqning Osiyo ishlari komissiyyasi prezidenti etib saylangandi.

Yig'ilish "Notariat sohasini raqamlashtirishni takomillashtirishda xorijiy amaliyotlar" mavzusida o'z ishlari davom ettirdi. Xorijiy davlatlarning notarial idoralar mas'ullari o'z mamlakatlarida bu borada amalga oshirilgan ishlar, kelgisidagi vazifalar haqida ma'ruza qildi, o'zaro fikr, tajriba almashildi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

**QORAKO'LCHILIK VA CHO'L EKOLOGIYASI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
2025-YIL UCHUN QUYIDAGI MUTAXASSISLIKAR
BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTLAR
VA MUSTAQIL IZLANUVCHILARNI**

QABUL QILADI

06.02.03. - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi;

06.02.01. - Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish, ko'paytirish seleksiyasi va genetikasi;

06.01.08. - O'simlikshunoslik.

Tayanch doktorantlar (PhD) va mustaqil izlanuvchilar sifatida talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- institut direktori nomiga ariza;
- ilmiy maslahatchi (konsultantning) yozma roziliyi;
- ma'lumotnomalar;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- oly ma'lumoti to'g'risidagi hujjat (bakalavr va magistr diplomi hamda ilovasi) nusxasi;
- kadrlar bo'limi tomonidan tasdiqlangan shaxsiy varaqalar (tarjimai hol bilan);
- chet tilini bilish darajasi haqida milliy sertifikat – "B1" va undan yuqori;
- jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalari (PhD tayanch doktorantlar - kamida bitta va tezislari ikkita) ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalar;
- pasport nusxasi;
- 4 dona 3x4 sm. o'chamdagি fotosurat.

Hujjatlар шу йил 15-sentabrdan 15-oktabrgacha qabul qilinadi.

Sayt: phd.mininnovation.uz

Ilk qabul qilingan tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar faoliyati ular bilan tuziladigan mehnat shartnomasiga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlanadi.

**Manzilimiz: Samarcand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 47-uy. Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti.
Murojaat uchun telefon: +99866-233-32-79.**

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Kamalova Tatyana Rustamovnaga (2019-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Baltayev Burxonqa (2010-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Djurayeva Saida Rasulovnaga (2020-yil 16-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasida marhum Asiman oglı Dijiyanga (2018-yil 6-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Nazaryan Ruben Gamletovichiga (2023-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Gerasimova Lidiya Mixaylovnaga (2023-yil 8-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum

G'affarov Abdurasulga (2017-yil 15-dekabrdagi vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.


Manzil: Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbanov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Amitdinov Farhad Nabiyevich (2020-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbanov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

XIRADMANDLIK ISTAKLARINING BILIMDONI

Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy tomonidan Samarcandning Halvoyi qishlog'da 1903-yilda qurilgan jadid maktabi binosi hozir ham saqlanib qolgan. Eski maktab binosi qayta ta'mirlanib, Siddiqiy-Ajziy uy-muzeyi sifatida faoliyat olib bormoqda. Afsuski, muzeyni eksponatlar bilan to'Idirish, o'sha davrga oid kitob va darsliklarni keltirish, zamonaviy multimediali qurollar bilan jihozlash muammoligicha qolmoqda.



Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy kim? Nega bu karomatli zot o'ziga "Ajziy" laqabini tanganan? "Ajz" so'zi arabchadan tarjima qilin-ganda, "kichik, kichkina" degan ma'nolarni anglatadi. "Mo'jaz", "juz'iy" so'zleri esa bitta o'zakdan hosil bo'igan.

Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy bobolari yo'lini tutib, ma'rifatli, ziyo ni bo'lishga intildi. Shuningdek, to'quvchi, tikuvcchi, soatozlikni hani puxta o'rgandi. Poliglot, tarjimon, jadid maktabi asoschisi sifatida tarixda nom qoldirdi.

Bu haqda buxorolik tazkiranasiv Ne'matulla Muhtaram o'zingiz "Tazkirat ush-shuaro" antologiyasida shunday yozadi: "Ajziy zakovat egasi, fahmu idroklihar sarasi, xushmandlig' ravishing ifodachisi, xiradmanklik istaklarining bilimdoni Hoji Samarcandiyning taxallusidirkim, (ul zot) tab'i daraxtining mevasi kabi (hamisha) qanddek totlig' erur hamda odamlar di-mog'i (aning she'rlari atridan (doimo) muattardir. Yaxshi xulqlik, yoqimlik xatlik va tabi baland bir kishidir..."

Siddiqiy-Ajziy 1901-yilda haj safariga otlangan. Mazkur sayohat davomida Yaqin Sharq mamlakatlarda ham bo'lib, islam dunyosining yangiliklari bilan tanishgan. U Jiddadagi Rusiya elchixonasida tarjimonlik qilib, Moskva, Peterburg, Tbilisidagi madaniy hayotin o'rganadi va o'z qishlog'iga qaytadi. Dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklardan ruhlangan adib vatan-doshlariga – yaxshi yashashning sirlarini o'rgatishga oshiqadi. U milliy uyg'onish davrining barcha ziyo'llilar singari keng ommani ma'rifatga boshlash, o'z haq-huquqlarini anglatishga bel bog'ldi.

Halvoysi qishlog'idagi maktabda 25 yildan ko'proq vaqt mobaynida tabiiy fanlar, arab sarfu navhi, rus tilidan dars beradi. Bolalar uchun darsliklari tuzib, rus tilidan L.Tolstoy hikoyalari, I.Krilov masallari, N.Gogolning "Shinel" qissasini o'zbek tiliga tarjima qilib kiritadi.

"Ayn ul-adab" ("Odob chashmasi", 1916), "Ganjinai hikmat" ("Hikmat xazinasi", 1914) kabi she'riy to'plamlari, "Mir'oti ibrat" ("Ibrat oynasi", 1914), "Anjuman arvoh" ("Arvohlar yig'ini", 1912) dostonlari nashr qilingan. Oktabr to'ntarishlaridan keyin Siddiqiy Samarcandda o'zbek va tojik tillarida nashr qilingan "Mashrab", "Mulla Mushfiqiy" kabi hajviy jurnallar, "Zarafshon" gazetasining chiqishida faol ishtirot etgan. Adib hajviy asarlariga "Mayna", "Shashpar", "Tir", "Gina-gina", "Olmos", "Gum-nom" kabi imzolar qo'yan.

Adibning "Mir'oti ibrat" va "Anjuman arvoh" dostoni 1912-yilda Abdulqodir Shakuriy tomonidan avval Tbilisida nashr qilingan. 1914-yilda esa Samarcanddagi Gazarov matbaa uyida chop etilib, jadid maktablari o'qitilan. "Anjuman arvoh" asari bugungi kunda Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyeida saqlanmoqda.

Nemis olismasi Ingeborg Balda "Mir'oti ibrat"ni ta'riflab, dostonda tilga olingan Samarcand aditi orzusidagi go'zal va obod shahar ekanligini ta'kidlab, asarga yuqori baho beradi: "Oyina" (Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan gaza-ta ko'zda tutilmoxda – D.R.) dunyoga kelishidan ilgari u "Mir'oti ibrat", ya'ni "Ibrat ko'zgusi" nomli bir xayoliy asar yaratgandi. Ajziy bu asarida xayoliy mamlakatlarga sayr qiladi va ko'z o'ngida namoyon bo'lgan o'zining, Behbudiyning ona shahri bo'l-ish Samarcandning orzusidagi timsolini tasvirlaydi".

"Mir'oti ibrat" dostonida adib o'zining orzu-umidlarini, havaslarini ifoda etadi. Yaqin kelajakida Samarcand juda go'zal, yam-yashil daraxtlari bilan o'ralgan, "tilg'irof", "telefon", "tramvoy", "moshin", "g'irmo'fo'n", yurtini "kavkabiston"dek charog'on qiluvchi qandillar, hatto – XIX asrda biz hozir guvohi bo'lib tur-gan videotasvirli telefonlar "Oyinayi barq ilia tilifo'n" va boshqa sanoat mahsulotlari bilan boyishini tasavvur qiladi.

Adib orzu qilgan mamlakat odamlari boy-badavlat yashaydi. Turli mamlakatlardan keltirilgan qimmatbaho mollar sotiladi.

Firuzai sabzad'in eshilklar,
Firuzaga tahnishon edub zar,
Oltin-la kumush kalidi mavjud,
Ishlanmish og'ochi sandali ud.

Ushbu satrlar orqali adib Samarcandning shonli tarixiga nazar solmoqda. Atigi bir necha asrlar ilgari madrasa eshilklari firuza toshlari bilan bezatilgan, oltin va kumushdan kalitlar yasalgan, eng qimmatbaho sanalgan ud daraxtidan jihozlar borligiga ishora qiladi. Nechun shunday badavlat Samarcand bu kuyga tushdi? Nega qimmatbaho eshilklar, salobatlari binolar xarobaga aylangan? Adib bu so'zlar orqali chor Rossiyasining Samarcandni to'pga tutganligiga ishora beradi. Orzusidagi shaharda esa yana qadimiylar bilan tiklangan, "gulgob'chalar ilia gulistonlar"da rayhon, sumbul, "giyoh sabzalar", "derak"lar gallab, tovus va sayroqi qushlar xonish qiladi.

Bu davlat odamlari bir-birlari bilan ahil, rivojlangan bir ma-konda yashaydilar. Orzusidagi shaharning Damashqdek go'zal,

Misr yoki Shomdek jannatmakon, suvlari Nil daryosidek musaffo bo'lishi kerak.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidarni va boshqa barcha ziyyolarni mushohadaga chorlagan narsa – adaptiy til va ona til o'tasidagi farqni isloh qilishdan iborat edi. O'sha davrda ham Turkiston ko'p millati o'la ekanligi, buning ustiga, sheva va lahjalardan foydalishdagi tartibning yo'qligi, rus va Yevropa tillaridan so'zlarining kirib kelishi adaptiy til haqida yagona bir fikrga kelish shartligini taqozo etardi. Vaholanki, sho'ir ta'kidlamochchi bo'lganidek, Samarcand xalqi turki-chig'atoj va tojik tilida so'zlovchi aholidan iborat, arab va rus tillarini o'rganish uchun tarjimonlar yetishmaydi. Dunyoga chiqishning yagona yo'li esa til o'rganishdan boshlanadi. Demak, Samarcand ahli turki-chig'atoj, o'zbek, tojik, rus va arab tillarini bilishlari zarur. Jahon tarraqiyotidan xabardor bo'lish, ilm-ma'rifatni o'rganish, o'lkaga sanoat va boshqa yangiliklarni olib kirish uchun ham tilish lozim.

Xalqni o'qimishli qilish, ma'rifatni tarqatish, kitob do'konni faoliyatini shakkantirish kabi asosiy ishlar ham dostondan o'ren olgan. Ayniqsa, maktab faoliyati, diniy, dunyoviy masalalar haqidagi fikr yuritar ekan, adib: Xitoy, Rim kabi davlatlarni misol tariqasida ko'rsatadi. Adib bir narsaga ishonadi, vaqt kelib, uning orzusidagi shahar paydo bo'ladidi. Unda insonor erkin va farovon kun kechiradi, o'z huquqlarini biladi, "zako'n"lar adolatli ishlaydi, asosiyisi, huquqiy davlat tomonidan himoya-langan tili bo'ladidi!

"Oyina" jurnalining 1914-yil 44-sonida Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziyning "Turkistonda maktab, jarida va ulamo" deb nomlangan maqolasi e'lon qilingan. "Mir'oti ibrat" dostoni uslubidan keskin farq qiluvchi ushbu maqolada jamiyatida sodir bo'layotgan voqe'a-hodisalar o'z aksini topgan. Ma'lumki, Turkistonda jadid maktablari o'z faoliyatini boshlagandan keyin bir tomonidan ulamolarga, ikkinchi tomonidan chor Rossiysi vakillari, uchinchi tomonidan mahalliy xonliklarga yoqmagan edi. Chunki ulamolar an'anaviy madrasa ta'lmini yoqlagan bo'lsa, chor Rossiysi vakillari rus-tuzem maktabi rivojiga e'tibar qoratar, xon va amirliklar shu paytgacha bo'lgan tizimni yo'qotib qo'yishni xohlamas edi. Jadid maktablarida esa ham diniy, ham dunyoviy bilim berilishi, buning ustiga mahalliy hamda boshqa tillar o'qitilishi, huquqiy ta'lim berilishi xavotirli edi. Jadid maktablari har tomonlama siqvuga olingan bo'lsa-da, o'quv-chilar soni oshib boraverdi. Adib ushbu maqolada geografiya fanining ahamiyati haqida gapirib, ulamolarning johilliklari tangid ostiga oladi. Zamonaviy va dunyoviy ta'lim rivojilari borayotganligi, bundan ulamolar xulosha chiqarishlari lozimligini ta'kidlaydi.

Afsuski, shu paytda Buxoro amirligida jadid maktablariga qarshi keskin kurash boshlangan, ularning ayrimlari yopilgan edi. Tabiiyki, bu jaholat Samarcandda ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrimlar hukumat vakillariga shikoyat qilib, jadid maktablarini yopishni talab qilishgan. Kishilar orasida jadid maktablariga nisbatan "dinemiz buzg'unchisi", "o'ris maktablar" tamg'alarini yopishitirilgan edi. Ayrim ulamolar jadid maktabiga farzandini o'qishga yuborganlarning "xotinlari taloq bo'lishi"ni bashorat qilishgan. Jaholatga qarshi kurash olib borgan jadid maktab mablag'i, gazeta, jurnal, teatrler orqali ma'nayativni oshirishga harakat qildilar. Hayot Ne'mati Samarcandning XX va XXI asr Samarcand tojik adaptiyoti namunalari jamlangan "Sipehri orzu" tazkirasida yozilishi-chi, 1914-yilda Buxoro va Samarcand ulamolari Ajziy-Samarcandning "Anjuman arvoh" dostonini "kofirlik" da ayblab, muallifi Samarcandning Registon maydonida toshbo'ron qilishga da'vat etadi. Ammo mahalliy aholi adibga tosh otmagan ekan. Bu ham millatning ilmiga, adaptiyoga bo'lgan mehrin, taraqqiyotga bo'lgan ishonchini bildiradi. Yangilani bkelayotgan va shu yangilanish jarayonida millat taraqqiyotini ko'zlayotgan jadidlarga xalq tomonidan bildirilgan hurmat belgisi edi.

Ajziy-Samarcand shu voqeadan so'ng "Dar javobi takfirkunandagon" ("Takfir qiluvchilar-ga javob") she'rini yozadi. Sadriddin Ayniyning ta'kidiga ko'ra, murabba vaznida yozilgan ushbu asarning avvalgi uch qismi ruboib bo'lib, unda an'anaviy pandu nasihat yoki muhabbat mavzusi chetlab o'tilgan:

Adibning saqlanib qolgan ikkita dostoni – "Mir'oti ibrat", "Anjuman arvoh" va uchta – "Tajvid al-Qur'on", "Ganjinai adaptiyot", "Ayn-ul-adab" darsliklari, shuningdek, mahalliy va xorij matbuotida bosilgan maqolalari, she'riyati jadid adaptiyotini boyitibgina qolmay, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi haqiqiy ijtimoiy hayotni yanada yorqinroq tasvirlashi bilan ahamiyatlari.

Dilafror'z RAHMATOVA.

Otaylor 1947-yilda Narpay tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining jurnalistik fakultetini tamomlab, vaqtli matbuotda faoliyat boshladi va jo'shqin ijodiy muhitga qadam qo'ydi. Ijodkorning birinchi she'riy to'plami «Ishqim bayoni» 1975-yilda chop etildi. Uning «Do'mbira» dostoni, «Quyoshni ko'rgani keldim», «Dunyoga tengdosh xazina», «Odamlar uchun yashayman» kabi esse va ocherklar to'plamlari adabiyot ixlosmandlarining qalbidan joy oldi.

Muhabbatli dunyoning bir fidoyisi



ing nazariy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar yozib, "Tarjima san'ati" to'plami da chop etti. Sho'ir 2001-yil 7-yanvarda Toshkent shahrida vafot etdi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tanqli sho'ir va tarjimon Otaylor qisqa umr ko'rdi. Ammo shu qisqa umri davomida barakali ijod qildi. Uning she'rlari, tarjimalari, ustoz Mirtemir domla haqidagi kitobi va ko'plab publistik maqolalari, es-selari bilan ulug' ijodkorlarning e'tiboriga tushdi, tengdoshlarining e'tirofini, kitobxonlarning mehrini qozondi.

Yaqinda poytaxtimizdag "Sahhof" nashriyotida "Muhabbatli dunyoning bir fidoyisi" nomli kitob nashriddi chiqdi. Unda sho'irin yaqindan bilgan, ardoqlagan yurtimizning tanqli jamoat arboblari, sho'ir va yozuvchilar, do'stlar, shogirdlari va yaqinlarining shior shaxsi va ijodi haqidagi samimiy bo'z'lar, xotiralar o'rinni o'lgan. Shuningdek, to'plama sadoqat va samimiyat timsoli bo'lgan ijodkorning ulug' sho'ir Mirtemir domla bilan ustoz-shogird muносabatlari tilga olingan.

S.MARDIEV.

Fikr

Aksariyat xonadonlarda oila bir dasturxon atrofida yig'ilisa, televizor ko'riladi. Ammo bugun u orqali berilayotgan aksariyat ko'rsatuv, kino va ayniqsa, serialarni yaqinlari-zim bilan birga ko'rishning imkoniy yo'q, uyat va nomus nimaligini unutmagan bo'lsangiz, albatta.

Milliy seriallar zararimizga ishlamasin

Serialarning nomini eshitib oq ensangiz qotadi: "Qotil santexnik", "Boltangan er", "Egasiz qabr", "Jallod qaynotda", "Shallaq", "Xiynat", "Sotilgan nomus". Bu shunchaki nom-ku, deyishingiz mumkin, ammo ularning ayrimlari berilayotgan sahna ko'rinishlari, ilgari surilayotgan g'oyalar undan ham dahshatli. Buni ko'pchilik gapirmoqda, tanqid qilmoqda, biroq natija...

O'qishga ketayotib, avtobus yo'lovchilarini shunday seriallardan birini muhokama qilayotgani ustida chiqdim. Biri uni maqtasa, boshqasi tanqid qiladi. Serialda odobiszlik, madanatsizlik, johillik targ'ib qilinayapti deganlar ko'proq. E'tiborimni tortgani, serialarni himoya qilayotganlar nuqul "zamonaviy"likni ro'kach qilmoqda. Qiziq, bugungi zamonaqning qanday mezonlar asosida belgilanadi ekan – jamiyatning fahsh va buzuqlik botqo'liga qanchalar chuquer botganligi bilan? Kimga o'xshamoqchi bo'yapmiz o'zi?

Fikrim quruq bo'limasligi uchun oxirgi ko'rgan serialning asosiy mazmunini keltirib o'stam. Taniqli aktrisalarimizdan biri bosh rolni ijob etgan bu serialning g'oyasi ham bo'rttirilgan maishiy muammolat atrofida qurilgan. Unda bosh



rahramonlardan biri ishslash uchun musofir yurtga ketadi. Ayoli va farzandlarini akasiga omonat qoldiradi. Shunda kelining qaynsinglisiga qiziq, bugungi o'zbek olasining milliy serillarimizdagi tafsivi. Buni ko'rgan yoshlar qanday xulosalar chiqaradi, yaxshi odamlar doim jabrida bo'lishinimi yoki maqsadga erishish uchun tuhat qilish kerakligini? Uni xorijiklar ko'rsa-chi, o'zbeklarning hayoti shu ekан, demaydimi?

Kuzataman, hind, koreys, qozog millatiga oid ijodkorlar kino yoki serial olsa, ko'proq o'z millatining urf-odatlari, afzal xususiyatlarni bo'rttirib ko'rsatadi. Buning maq-sadi aniq - kimnidir aldash emas, balki xalqni tarbiyalash, uning qadri, g'ururini ko'tarish. Bizda qachon shunday filmlar surtaga olinadi?

Dilnavoz TO'XTAEVA, Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

12-SENTABR
Furqat MIRZAYEV – (1966-2015) Toyloq tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, xonanda.

13-SENTABR
Furqat TOJIYEV – (1913-2001). Kat-taqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Kimyogar olim. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

15-SENTABR
Azamat SHAMSIYEV – 1945-yilda Xatirchi tumanida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori, professor.

Shuhrat QO'SHOQOV – 1943-yilda Namangan viloyatining Norin tumanida tug'ilgan. Fal-safa fanlari doktori.
Azim QODIROV – (1955-2021) Kat-taqo'rg'on shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi a'zosi.

MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 676 nusxada chop etildi. Buyurtma 473. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta